

TASVIRIY SAN'AT FANLARI BO'YICHA YUQORI MALAKALI MUTAXASSISLAR TAYYORLASHDA TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISH USULLARI

Qalandarova Sevinchoy Madraxim qizi

**Navoiy Davlat Universiteti Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim
yo'nalishi 3-bosqich talabasi**

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada amaliy mashg'ulotlar mazmuni talabalar badiiy-kasbiy bilimi, malaka va mahoratini har jihatdan mukammal (professional) va jiddiy o'zlashtirishni hamda ularni maktab o'quvchilari va kollej talabalariga badiiy ta'lim-tarbiya berish jarayonida yondasha bilishi va o'rgatishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Tasviriy san'at, metodika, ta'lim-tarbiya, professional o'qituvchi.

МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ ИСКУССТВУ В ПОДГОТОВКЕ ВЫСОКОКВАЛИФИЦИРОВАННЫХ СПЕЦИАЛИСТОВ ПО ДИСЦИПЛИНАМ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматривается содержание практических занятий, позволяющих учащимся в совершенстве (профессионально) и всесторонне овладеть художественно-профессиональными знаниями, умениями и навыками, а также уметь подходить и обучать их в процессе художественного воспитания школьников и студентов колледжей.

Ключевые слова: Изобразительное искусство, методика, воспитание, профессиональный педагог.

METHODS OF TEACHING FINE ARTS IN THE TRAINING OF HIGHLY QUALIFIED SPECIALISTS IN THE DISCIPLINES OF FINE ARTS

ANNOTATION: This article examines the content of practical exercises that allow students to master artistic and professional knowledge, skills and abilities perfectly (professionally) and comprehensively, as well as to be able to approach and teach them in the process of artistic education of schoolchildren and college students.

Key words: Fine arts, methods, education, professional teacher.

KIRISH

Tasviriy san'at fanlari bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda «Tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi» fani o'rganiladigan asosiy kurslardan biri hisoblanadi. Bu fan orqali bo'lajak tasviriy fan o'qituvchilarni amaliy mashg'ulotlarda metodik jihatdan tayyorgarligini takomillashtirishning muhim omilidir. Bu amaliy mashg'ulotlar mazmuni talabalar badiiy-kasbiy bilimi, malaka va mahoratini har jihatdan

mukammal (professional) va jiddiy o'zlashtirishni yordam beradi. Bundan tashqari metodika fani maktab o'quvchilari va kollej talabalariga badiiy ta'lim-tarbiya berish jarayonida to'g'ri yondasha bilishni nazarda tutadi.

Bizga ma'lumki, Oliy o'quv yurtlarida ta'lim mazmuni eng dolzarb vazifalaridan biridir. Bu vazifani hal etish hozirgi davr o'qituvchisini o'z fani doirasida chuqur va keng bilimli, shuningdek, ijodkor va izlanuvchan bolishini talab qiladi. Ijodiy, estetik jihatdan rivojlangan, mustaqil fikrlashga qodir, zamonaviy dunyo qadriyatlarini anglaydigan va milliy-ma'naviy an'analarni egallagan, yuqori professional mahoratga ega rassom-pedagog yoki san'atkor mutaxassisni shakllantirishning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Tasviriy san'atni o'qitish usullarining maqsadi – nafaqat **qo'lda chizishni o'rgatish**, balki **keng qamrovli, madaniy jihatdan boy, ijodiy va intellektual salohiyatga ega mutaxassis** yetishtirishdir. Bu maqsad amaliy mashg'ulotlar, nazariy fanlar, individual yondashuv va doimiy izlanishlar orqali amalga oshiriladi, natijada talaba nafaqat mahoratli san'atkor, balki tafakkurli va dunyoqarashi keng shaxs sifatida shakllanadi.

Pedagogika fanidan shu narsa ma'lumki, «metodika» so'zi (uslub ifodasi) - ifoda etishdan olingan bo'lib, o'rgatiladigan o'quv materialarni o'quvchilarga o'rgatish, o'qitish, va o'zlashtirishning nazariy va amaliy asosi - faoliyati yoki usulidir. Ya'ni «uslub» deganda tasviriy san'atda rasmi chiziladigan ob'ektni, naturani yoki tahlil etiladigan san'at asarini o'quvchilarga tushuntirish yoki uning nazariy va amaliy asoslarini tahlil etib berishni yoki o'rganishni yo'l-yo'riqlarini, uslublarini tushuniladi. Tasviriy san'atni o'qitish uslubiyoti kursi bo'lajak rassom - pedagoglarga maktabda tasviriy san'atni o'qitish va o'rgatishni eng oson, qisqa va ilmiy asosda bo'lishi uslubini o'rgatuvchi fandir.

Shular asosida shuni aytish mumkinki, bu kurs va uning maqsadi - vazifasi bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilariga maktabda tasviriy san'atini maqsadi, vazifasi, mazmunini tushuntirib berish, uni maktab o'quvchisiga o'rgatish, o'qitish va tushuntirishni eng samarali yo'llarini ko'rsatib berishdan iborat bo'ladi.

Tasviriy san'atni o'qitish kursi bo'lajak rassom - pedagoglarga o'quvchilar bilan ishlashni ilmiy asoslarni, nazariy va amaliy faoliyatini ko'rsatib beradi. Kursning asosiy maqsadi hozirgi zamon tasviriy san'atining qonun-koidalari asosida uni maktab faoliyatida foydalanish va maktab tasviriy san'atini o'quvchilarga o'rgatishning eng zamonaviy, eng samarali, sinalgan uslublari bilan qurollantirish va maktab tasviriy san'ati bo'yicha tarbiyaviy va ta'limiy faoliyatini amalga oshirishni pedagogika va psixologiyaning eng so'nggi yutuqlari asosida olib borishga tayyorlashdan iboratdir. Shundan kelib chiqqan holda kurs bo'lajak pedagog rassomlarga:

- Maktab tasviriy san'at o'quv predmetining maqsadi, vazifasi va mazmunini va amaliy jihatlarini tushuntirib berish;

- Maktab tasviriyl san'atini dasturi va uning mazmuni bilan qurollantirish;
- Maktab o'quvchisi bilan ishlashning pedagogik mahorati bilan tanishtirish;
- Maktabda o'quvchilar bilan tarbiyaviy va ta'limiy ishlarni amalga oshirishga tayyorlash;
- Tasviriyl san'atdan dars berishga tayyorlash, dars berishdagi uslub va didaktik printsiplari bilan qurollantirish;
- Maktabda dars berishni tarixiy taraqqiyotini yaxshi bilgan holda, hozirgi zamon dars berishni eng samarali uslub va didaktik jarayonini o'zlashtirish va ularni o'z pedagoglik faoliyatida qo'llash, uni takomillashtirib borishga o'rgatish;
- Bo'lajak rassom-pedagogni ijodkorlik ruhida faoliyat ko'rsatishga o'rgatish kabilarni o'z oldiga bosh vazifa qilib qo'yadi.

Tasviriyl san'atni o'qitish metodikasi tarixini, uni dastur va darsliklarini, tasviriyl san'atni o'qitish jarayonida didaktik printsiplardan va predmentlararo bog'lanishdan foydalanish, dars va darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish, o'quvchilarni fanga qiziqitirish, darslarda o'quvchilarga grafik bilim berishning eng oson, qisqa asosli yo'nalishlarining ilmiy asoslarini o'rgatish kurs mazmuniga kiradi., Ma'lumki o'qitish metodikasi davr tanlamaydi, balki davr dars uslublarini tanlaydi .

XVII asrda atoqli Chex pedagogi YA.O.Komenskiy maktab sistemasini ishlab chiqqan holda, unda foydalaniladigan o'qitishning qator uslublari va didaktik printsiplarini jahon xalqlariga va ularning maktablari uchun tavsiya etgan edi.¹

O'zbekiston mustaqillikka erishishi munosabati bilan milliy maktablarimiz shakllanib, jahon pedagogikasi erishgan eng yuksak - samarali ish tajribalaridan o'zining o'qitish usullarini tanlagan holda o'zining o'quv-metodik ishlarini amalga oshirmoqda.

Tasviriyl san'at o'quv predmeti mustaqillik yillarida milliy maktablarimizda yanada ahamiyatli bo'lib, uni o'qitilishini takomillashtirish tadbirlari belgilanmoqda. Hozirgi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarimizda o'qitishning 3 ta asosiy uslubidan foydalaniladi.

I. - O'quv materialini og'zaki bayon etish uslubi.

II. - Amaliy ishlar uslubi.

III. - O'qitishning ko'rgazmalilik uslubi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarimizda tasviriyl san'atni o'qitish ham umumiy ta'lim fanlari qatori yuqoridagi o'qituv uslublaridan foydalanib kelinmoqda.

Bu uslublar yaxshi samara bermoqda. Shunga ko'ra bugungi kunda tasviriyl san'atni o'qitish uslubiyoti maktab tasviriyl san'ati dasturi asosida uning maqsadi va vazifasini, mazmunini sistemali holda o'rganib, ularni o'qitishning eng samarali uslub va didaktik printsiplarini tanlab, umumlashtirib, bo'lajak rassom-pedagoglarga yetkazib beriladi.

¹ Я.О.Коменский. Вуюк дидактика. СЕшувечи. Т. 1975 й.

Shuningdek, tasviriy san'atni o'qitish uslubiyoti kursi o'zining uslub va printsiplarini bugungi kunda dars berayotgan tasviriy san'at o'qituvchilariga qator uslubiy maqolalar, adabiyotlar asosida yetkazib bermoqda. Tasviriy san'atni o'qitish uslubiyoti bilan O'zbekiston Pedagogika Fanlari Ilmiy Tadqiqot Instituti, Nizomiy nomli Toshkent Davlat pedagogika instituti Namangan va Buxoro davlat universitetlarining rassompedagog olimlari shug'ullanib kelmoqdalar. Bir qator mualliflar pedagogik tadqiqotlar psixologlari insonning har qanday qobiliyati va aql-zakovati shaxsning tug'ma fazilatlari emas, balki shaxsning faol faoliyati natijasidir va faqat ta'lim va tarbiya yordamida ularni o'zgartirish, takomillashtirish va rivojlantirish mumkinligini ishonchli isbotlaganligi haqida ma'lumotlar yoritilgan².

Shu jumladan Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti "Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi" kafedrasida dotsenti p,f,n U.N.Nurtayev "Педагогик технология - бу таълим шакллари оптимизациясини ўзига мақсад қилиб олган инсон ва техник ресурслари ва уларнинг ўзаро таъсирини ҳисобга олган ҳолда ўқитиш жараёнини ташкил этиш, қўллаш ва аниқлашнинг ҳамда билимларни ўзлаштиришнинг услубларидир" deb o'zining Tasviriy fanlarni o'qitishning innovatsion mohiyatini loyihalash o'quv uslubiy majmuasida ta'rif bergan edi.

Bundan kelib chiqadiki olimlar ilmiy izlanishlari, ularning tadqiqotlari natijasi tasviriy san'atni o'qitish usullarini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, talabalarni tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi o'rganish tasviriy san'at mashg'ulotlari, ekskursiyalar, mustaqil ta'lim mashg'ulotlarni samarali tashkil etish, mavzu mazmuniga bog'liq holda ularni milliy va umum insoniy qadriyatlarga hurmat, mustaqillik prinsiplari va Ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga katta e'tibor berish lozim.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayev N . San'at tarixi. 2 tomlik, 1-tom , - T.: San'at, 1986 - 190-bet.
2. Azimova B.Z. Naturmort tuzish va tasvirlash. T.O'qituvchi. 1984.
2. Azimova B.Z. Badiiy-grafika fakultetida kurs ishi bajarish yuzasidan metodik tavsiyalar. T.: 1989.
3. Abdirasilov S. Tasviriy san'at o'qitish metodikasidan amaliy mashg'ulotlarni bajarish. T.1996.
4. Abdirasilov S., Tolipov N . Rangtasvir. T.: Bilim, O'MKHTM , 2005.
5. Abdirasilov S. Tasviriy san'at atam alari. T.: Nizomiy nomidagi TDPU rizografida, 2003.
6. Abdirasilov S., Tolipov N ., Oripova N . Rangtasvir. T.: O'zbekiston, 2006.
- 7 N .U . Abdullayev. San'at tarixi. 2-jild. T.: San'at, 2001,

² Niyozovich, G. I. (2025). TA'LIM MUASSASALARIDA MILLIY-BADIIY AN'ANALARNING ASOSIY SHAKLLANTIRUVCHI MANBALARI. *FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities.*, 13(6), 275-283.

8. S.U. Abdullayev. Qalam tasvir. Buxoro. 2002,
9. B.Z. Azimova. Natyunnort tuzish va tasvirlash metodikasi. T.: O'qituvchi, 1984,
10. B. Azimov. Qalam tasvir. Buxoro. 2002,
11. A. Innog'omov. Boshlang'ich tasviriy san'at asoslari. T.: 1996,
12. M.N. Nabiyeu. Rangshunoslik. T.: O'qituvchi, 1995,
13. B.N. Oripov. Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. T. Ilm -Ziyo, 2005,
13. Niyozovich, G. I. (2025). TA'LIM MUASSASALARIDA MILLIY-BADIIY AN'ANALARNING ASOSIY SHAKLLANTIRUVCHI MANBALARI. *FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities.*, 13(6), 275-283.
14. B.B. Boymetov. Qalam tasvir. T.: Musiqqa, 2006,
15. R. Hasanov. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi T.: Fan, 2004,
16. Q. Qosimov Naqqoshlik. T.: O'qituvchi, 1990, N X. Tolipov Rangtasvir. T.: O'zbekiston, 2006.
17. Gadoyev, I. (2020). Talabaniing fazoviy tasavvurini va mantiqiy fikrlashni takomillashtirish. *Xalqaro ko'p tarmoqli tadqiqot jurnali Hindiston. Infofaktor jurnal.*
18. Abdullaev, S. F. IN Gadoyev Rangtasvir. *O'quv qo'llanma. Navoiy-2022*, 132.
19. Niyazovich, G. I. (2021). Ways of Use of Modern Innovative Technologies in Fine ARTS Classes and Through the Improvement of Ideas of National Independence to Students. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 234-237.
20. Gadoev, I., Jalolov, S., Togaev, K., Esanova, L., Absobirov, S., & Ravshanova, G. (2025, February). Organizing practical classes in computer graphics. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 3268, No. 1, p. 070027). AIP Publishing LLC.
21. Gadoyev, I., & Hikmatova, M. (2023, December). BUGUNGI KUNDA TALABANING FAZOVIY TASAVVURU VA MANTIQUIY FIKRLASHINI TAKOMILLASHTIRISH TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MASALALARI HAQIDA. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic: "Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions"* (Vol. 1, No. 01).